

Qo'shni davlatlar bilan sheriklikdagi yangi loyihalar ko'rib chiqildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona va o'zaro manfaatli aloqalari izchil rivojlanib bormoqda. So'nggi besh yilda ular bilan tashqi savdo hajmi 2,5 barobarga ko'payib, 6 milliard dollardan oshgan. Yurtimizda qo'shni davlatlar kapitali ishtirokida 1 ming 700 ta qo'shma korxonalar ochildi.

Yig'ilishda Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga oid yangi loyiha va takliflar ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda kichik biznesni yanada rivojlantirish maqsadida hududlarning investitsion jozibadorligi milliy reytingini ishlab chiqish tizimi ham muxokama qilindi.

Davlatimiz rahbari ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha aniq topshiriqlar berdi.



Manba